Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, agrotadbirkorlik samaradorligi muvozanati “eng yuqori mahsulot hajmi” yoki “eng yuqori foyda” sifatida emas, balki koʻp mezonli optimal holat sifatida ifodalanadi. Bunday holatda har bir resurs yoʻnalishi boʻyicha marjinal qaytim oʻzaro yaqinlashadi, integral samaradorlik indeksi belgilangan maqsadli koridorda boʻladi, resurslardan ortiqcha bosim yuzaga kelmaydi va ijtimoiy-iqtisodiy natijalar hududiy rivojlanish maqsadlariga muvofiq keladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agrotadbirkorlik samaradorligi muvozanatini aniqlash masalasi iqtisodiy nazariyadagi “muvozanat”, “resurslar taqsimoti”, “ishlab chiqarish samaradorligi”, “tadbirkorlik faolligi” va “institutsional muhit” tushunchalari bilan bevosita bogʻliq. Bu yoʻnalishda klassik va neoklassik iqtisodiy maktablar, institutsional iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish nazariyasi va barqaror qishloq xoʻjaligi konsepsiyalari oʻzaro toʻldiruvchi nazariy asos vazifasini bajaradi. Agrotadbirkorlikda muvozanat deganda faqat talab va taklif tengligi emas, balki yer, suv, mehnat, kapital, texnologiya, bozor infratuzilmasi va institutsional ragʻbatlar oʻrtasidagi mutanosiblik tushuniladi. Shu bois adabiyotlar sharhida har bir olimning qarashi agrar tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga bogʻlab talqin etiladi.

A. Marshallning “Principles of Economics” asarida bozor muvozanati talab, taklif va narxning oʻzaro taʼsiri orqali shakllanishi taʼkidlanadi. Marshall yondashuviga koʻra, iqtisodiy subyektlar bozor signallariga, ayniqsa narx va xarajatlar nisbatiga qarab qaror qabul qiladi. Bu nazariya agrotadbirkorlik uchun muhim, chunki fermer, dehqon xoʻjaligi yoki agrobiznes subyekti mahsulot hajmini bozor talabi, resurs tanqisligi va ishlab chiqarish xarajatlari bilan uygʻunlashtirgan holda belgilaydi. Agar mahsulot taklifi bozor talabidan uzilib qolsa yoki resurs sarfi daromaddan yuqori boʻlsa, samaradorlik muvozanati buziladi. Demak, Marshall qarashlaridan kelib chiqqanda, agrotadbirkorlik samaradorligi muvozanati “ishlab chiqarish — xarajat — bozor narxi — talab” zanjiridagi nisbiy moslik bilan ifodalanadi. [1]

V. Pareto nazariyasi esa samaradorlikni resurslarning oqilona taqsimlanishi nuqtayi nazaridan tushuntiradi. Pareto samaradorligida resurslar shunday taqsimlanadiki, bir subyektning holatini yaxshilash boshqa subyekt holatini yomonlashtirmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun Pareto yondashuvi agrotadbirkorlikda tarmoqlar va subyektlar manfaatini kompleks hisobga olishni talab qiladi. [2].

M. Farrell ishlab chiqarish samaradorligini o'lchash bo'yicha fundamental metodologik asos yaratgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning fikricha, umumiy samaradorlik ikki asosiy qismdan — texnik samaradorlik va taqsimot samaradorligidan tashkil topadi va samaradorlik muvozanatini aniqlash uchun faqat mahsulot hajmi emas, balki 1 gektardan olingan qo'shilgan qiymat, 1 $m^3$ suvga to'g'ri kelgan mahsulot, 1 ishchiga to'g'ri kelgan daromad va investitsiya qaytimi kabi nisbiy ko'rsatkichlar ham hisobga olinishi lozim. [3]

R. Kouzning tranzaksion xarajatlar nazariyasi agrotadbirkorlikda bozor va tashkilotlar o'rtasidagi tanlovni tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Kouz fikricha, firmalar bozor orqali bitim tuzish xarajatlari yuqori bo'lgan holatlarda yuzaga keladi. Shu jihatdan Kouz qarashlari agrotadbirkorlik samaradorligi muvozanatida qiymat zanjiridagi bitim xarajatlarini kamaytirish muhimligini ko'rsatadi. [4]

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Metodologik asos sifatida agrar iqtisodiyotda qo'llaniladigan samaradorlik, resurs cheklovlari, normallashtirilgan indikatorlar, integral baholash va optimallashtirish yondashuvlari umumlashtirildi. OECD tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi "uch tomonlama vazifa" – aholini yetarli va sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash, tarmoqdagi aholi turmush darajasini qo'llab-quvvatlash va ekologik barqarorlikni saqlash – sharoitida rivojlanishi kerakligi ta'kidlanadi [7]. Shuning uchun taklif etilayotgan metodika iqtisodiy natijani resurs samaradorligi va ekologik cheklovlardan ajratib qaramaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

"Agrotadbirkorlik samaradorligi muvozanati" quyidagicha ta'riflanadi: muayyan hudud yoki xo'jaliklar guruhida iqtisodiy foyda, qo'shilgan qiymat, yer-suv-mehnat va ozuqa resurslari qaytimi, innovatsion investitsiya samarasi, aholi bandligi, qayta ishlash va bozorga chiqish imkoniyatlari hamda ekologik barqarorlik ko'rsatkichlari o'zaro mutanosib bo'lgan holatdir. Muvozanat holatida bitta yo'nalishdagi yuqori natija boshqa yo'nalishda keskin kamchilik yoki resurs bosimini yuzaga keltirmasligi kerak.

Ko'p mezonli baholash uchun olti blokdan iborat indikatorlar tizimi taklif etiladi: iqtisodiy blok, resurs bloki, ijtimoiy blok, innovatsion blok, bozor-infratuzilma bloki va ekologik blok. Har bir blokda stimulyator va destimulyator ko'rsatkichlar ajratiladi. Stimulyator – qiymati oshgani sayin samaradorlikni kuchaytiradigan ko'rsatkich; destimulyator – qiymati oshgani sayin xavf yoki xarajatni kuchaytiradigan ko'rsatkichdir. Masalan, 1 gektarga qo'shilgan qiymat, mehnat unumdorligi, qayta ishlash ulushi va innovatsiya qaytimi stimulyator hisoblanadi; suv sarfi, ozuqa yetishmovchiligi, yo'qotishlar va qarz yuki esa destimulyator sifatida baholanadi.

Indikatorlarni bir shkalaga keltirish uchun normallashtirish amalga oshiriladi. Stimulyator ko'rsatkichlar uchun quyidagi formula qo'llanadi:

$$N_i = (X_i - Xmin) / (Xmax - Xmin)$$

Destimulyator ko'rsatkichlar uchun esa teskari normallashtirish qo'llanadi:

$$N_i = (Xmax - X_i) / (Xmax - Xmin)$$

Bu yerda $N_i$ – normallashtirilgan ko'rsatkich, $X_i$ – haqiqiy qiymat, Xmin va Xmax – tanlangan yillar yoki hududlar bo'yicha minimal va maksimal qiymatlar. Agar ma'lumotlarda keskin chetlanishlar mavjud bo'lsa, 1–99 foizli persentillar orqali "winsorization" usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu usul normallashtirishda tasodifiy yoki ekstremal qiymatlarning integral indeksga ortiqcha ta'sirini kamaytiradi.

Integral samaradorlik indeksi vaznlangan o'rtacha usulda hisoblanadi:

$$E = \Sigma\, w_i \cdot N_i, \quad \Sigma\, w_i = 1, \quad 0 \le E \le 1$$

Bu yerda E – agrotadbirkorlikning integral samaradorlik indeksi, $w_i$ – indikator yoki blok vazni. Vaznlar ekspert baholashi, entropiya usuli, asosiy komponentlar tahlili yoki davlat va hududiy strategiya maqsadlariga muvofiq belgilanishi mumkin. Dissertatsiya tadqiqotida maqsadli vaznlash tavsiya etiladi: iqtisodiy blok – 0,25; resurs bloki – 0,20; ijtimoiy blok – 0,15; innovatsion blok – 0,15; bozor-infratuzilma bloki – 0,15; ekologik blok – 0,10. Bunday nisbat agrotadbirkorlikni iqtisodiy natijaga yo'naltirgan holda, resurs va ijtimoiy-ekologik cheklovlarni ham hisobga oladi.

1-jadval
Agrotadbirkorlik samaradorligi muvozanatini baholash indikatorlari tizimi[1]

| Blok | Asosiy indikatorlar | Iqtisodiy mazmun | Turi |
|---|---|---|---|
| Iqtisodiy | Qo'shilgan qiymat/ga; 1 gektarga to'g'ri keladigan foyda; rentabellik; mahsulot tannarxi | Xo'jalik va hududning moliyaviy natijasi | stim./dest. |
| Resurs | Suv sarfi/tonna; ozuqa birligi qaytimi; mehnat unumdorligi; yerdan foydalanish intensivligi | Cheklangan resurslardan qaytim darajasi | stim./dest. |
| Ijtimoiy | Bandlik; daromad; qishloq aholisi uchun ish o'rinlari sifati; kooperatsiyaga qamrov | Agrotadbirkorlikning aholi farovonligiga ta'siri | stim. |
| Innovatsion | Innovatsiya investitsiyasi; raqamli xizmatlardan foydalanish; texnologiya qaytimi | Yangi texnologiyalar orqali samaradorlik o'sishi | stim. |
| Bozor-infratuzilma | Qayta ishlash ulushi; shartnomaviy sotuv; eksportga yo'nalganlik; sovuq zanjir | Qiymat zanjiriga ulanish darajasi | stim. |
| Ekologik | Suv tejash; tuproq unumdorligi; chiqindi/yo'qotish; iqlim xavfiga moslashuv | Barqarorlik va resurslar bosimini kamaytirish | stim./dest. |

Muvozanatni aniqlashda faqat umumiy indeks yetarli emas. Chunki E yuqori bo'lishi mumkin, ammo ayrim bloklarda katta nomutanosiblik saqlanishi ehtimoli mavjud. Shuning uchun maqsadli me'yorlardan og'ish masofasi quyidagicha hisoblanadi:

$$D = \sqrt{\Sigma\, v_j \cdot (N_j - T_j)^2}$$

Bu yerda D – muvozanatdan og'ish masofasi, $T_j$ – har bir blok bo'yicha maqsadli me'yor, $v_j$ – blok ahamiyati. D qancha kichik bo'lsa, hudud yoki xo'jalik shuncha muvozanatli hisoblanadi. Maqolada “muvozanatli samaradorlik indeksi” quyidagicha ifodalanadi:

$$EM = E / (1 + D)$$

EM indeksi ikki jihatni birlashtiradi: birinchi tomondan, umumiy samaradorlik darajasini, ikkinchi tomondan, ko'rsatkichlar o'rtasidagi nomutanosiblikni. Shuning uchun EM yuqori bo'lgan hudud nafaqat natijador, balki barqaror va mutanosib rivojlanayotgan agrotadbirkorlik tizimiga ega deb baholanadi.

Resurs cheklovlari sharoitida muvozanatni aniqlash uchun optimallashtirish modeli taklif etiladi. Faraz qilaylik, hududda j = 1…m turdagi agrotadbirkorlik yo'nalishlari mavjud: sabzavotchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, qayta ishlash, logistika va xizmat ko'rsatish. Har bir yo'nalishga ajratiladigan resurs $x_j$ bilan belgilanadi. Maqsad funksiyasi qo'shilgan qiymat yoki integral samaradorlikni maksimallashtirishga qaratiladi:

$$\text{Max } Z = \Sigma\, c_j \cdot x_j$$

cheklovlar:

$$\Sigma\, a_jx_j \le A;\;\; \Sigma\, w_jx_j \le W;\;\; \Sigma\, l_jx_j \le L;\;\; \Sigma\, i_jx_j \le I;\;\; x_j \ge 0$$

Bu yerda A – yer, W – suv yoki ozuqa, L – mehnat, I – investitsiya cheklovi; $c_j$ – yo'nalishning qo'shilgan qiymat yoki samaradorlik koeffitsiyenti; $a_j$, $w_j$, $l_j$, $i_j$ – resurs sarfi koeffitsiyentlari. Muvozanat sharti marjinal qaytimlar tenglashishi orqali ifodalanadi:

$$MP_j / MC_j = MP_k / MC_k, \text{agar } x_j > 0 \text{ va } x_k > 0$$

Boshqacha aytganda, har bir resurs birligi qaysi yo'nalishga ajratilmasin, uning qo'shimcha qaytimi o'zaro yaqin bo'lishi kerak. Agar bir yo'nalishda marjinal qaytim yuqori bo'lsa, resurslar shu yo'nalishga qayta taqsimlanadi; agar marjinal qaytim past va ekologik bosim yuqori bo'lsa, resurs ajratish cheklanadi. Shu orqali agrotadbirkorlik samaradorligi muvozanati amalda resurslarni oqilona taqsimlash mexanizmiga aylanadi.

Tadqiqot uchun ma'lumotlar manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, World Bank World Development Indicators, FAO statistik yilnomalari, OECDning agrar samaradorlik va barqarorlikka oid tadqiqotlari hamda hududiy statistik hisobotlardan foydalanish mumkin. World Bank ma'lumotlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaIMdagi ulushi, bir ishchiga to'g'ri keladigan qo'shilgan

1 Muallif tomondan ishlab chiqildi.

qiymat va qishloq xoʻjaligida bandlik ulushi kabi xalqaro taqqoslanadigan koʻrsatkichlarni taqdim etadi [8; 9].

Taklif etilgan metodika natijasida agrotadbirkorlik samaradorligi muvozanatini baholashning besh bosqichli algoritmi shakllantirildi. Birinchi bosqichda hududiy agrotadbirkorlik tizimi chegarasi belgilanadi: tuman, iqtisodiy zona, klaster yoki mahsulot yoʻnalishi. Ikkinchi bosqichda maʼlumotlar yigʻiladi va indikatorlar bloklarga ajratiladi. Uchinchi bosqichda indikatorlar normallashtiriladi va vaznlanadi. Toʻrtinchi bosqichda integral indeks E, ogʻish masofasi D va muvozanatli indeks EM hisoblanadi. Beshinchi bosqichda natijalar resurs cheklovlari va marjinal samaradorlik shartlari bilan solishtirilib, hududiy boshqaruv choralari ishlab chiqiladi.

Indeks natijalarini talqin qilish uchun quyidagi shkala taklif etiladi: 0,00–0,39 – past muvozanat, resurs yoki institutsional cheklovlar kuchli; 0,40–0,59 – oʻrtacha muvozanat, ayrim bloklarda nomutanosiblik mavjud; 0,60–0,79 – nisbatan barqaror muvozanat, asosiy indikatorlar maqsadli koridorga yaqin; 0,80–1,00 – yuqori muvozanat, iqtisodiy natija, resurs qaytimi va ijtimoiy-ekologik barqarorlik oʻzaro muvofiq.

2-jadval
Samaradorlik muvozanatini aniqlash algoritmi[2]

| Bosqich | Amal | Natija |
|---|---|---|
| 1 | Hudud, mahsulot yoki xoʻjaliklar guruhi tanlanadi | Tahlil obyekti aniqlanadi |
| 2 | Indikatorlar iqtisodiy, resurs, ijtimoiy, innovatsion, bozor va ekologik bloklarga ajratiladi | Koʻp mezonli maʼlumotlar bazasi tuziladi |
| 3 | Stimulyator va destimulyatorlar normallashtiriladi | 0–1 shkalada taqqoslanadigan koʻrsatkichlar olinadi |
| 4 | E, D va EM indekslari hisoblanadi | Samaradorlik va muvozanat darajasi baholanadi |
| 5 | Resurs cheklovlari va marjinal qaytimlar tahlil qilinadi | Optimallashtirish va amaliy boshqaruv tavsiyalari ishlab chiqiladi |

Qashqadaryo viloyati misolida mazkur metodika tumanlar yoki iqtisodiy zonalar kesimida qoʻllanishi mumkin. Viloyatda agrotadbirkorlikni rivojlantirish uchun shartli ravishda toʻrt zona ajratiladi: sugʻoriladigan intensiv dehqonchilik zonasi, ishchi kuchi koʻp boʻlgan diversifikatsiya zonasi, investitsiya va eksportga yoʻnalgan zona hamda qiymat zanjiriga asoslangan qayta ishlash zonasi. Har bir zona uchun maqsadli indikatorlar va vaznlar turlicha belgilanadi. Masalan, sugʻoriladigan intensiv dehqonchilik zonasida suv samaradorligi va 1 gektarga toʻgʻri keladigan qoʻshilgan qiymat asosiy mezon boʻlsa, qayta ishlash zonasida xomashyoni mahalliy qayta ishlash, logistika, sovuq zanjir va shartnomaviy sotuv ulushi yuqori ahamiyatga ega boʻladi.

Rasmiy statistik maʼlumotlarda 2024-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyot yalpi qoʻshilgan qiymatining 54,3 foizini yaratgani, ular tomonidan yaratilgan qoʻshilgan qiymat tarkibida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi 33,9 foizni tashkil etgani, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida kichik tadbirkorlik ulushi 95,8 foizga yetgani qayd etilgan [6]. Bu raqamlar agrotadbirkorlik samaradorligi muvozanatini baholashda kichik biznes, fermer va dehqon xoʻjaliklari, qayta ishlash subyektlari va xizmat koʻrsatuvchi korxonalarni yagona tizim sifatida qamrab olish zarurligini koʻrsatadi.

Metodik jihatdan hududiy natijalar quyidagi shaklda talqin qilinadi. Agar iqtisodiy indeks yuqori, lekin resurs indeksi past boʻlsa, bu yuqori mahsulot hajmi suv, yer yoki ozuqa resurslariga ortiqcha bosim hisobidan taʼminlanayotganini anglatadi. Agar ijtimoiy indeks yuqori, iqtisodiy indeks past boʻlsa, bandlik mavjud, ammo mehnat unumdorligi va daromad past boʻlishi mumkin. Agar innovatsion indeks past boʻlsa, samaradorlik oʻsishi asosan ekstensiv omillar hisobiga yuzaga keladi. Agar bozor-infratuzilma indeksi past boʻlsa, mahsulot xomashyo sifatida sotilib, qoʻshilgan qiymat hududdan tashqarida shakllanadi. Shunday qilib, muvozanat indeksi har bir hududda rivojlantirilishi lozim boʻlgan yoʻnalishlarni aniqlash imkonini beradi.

Quyidagi namunaviy hisoblash tartibi dissertatsiya tadqiqotida Excel yoki statistik dasturlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan, tumanlar kesimida 20 ta indikator tanlanadi. Har bir indikator 2020–2024-yillar boʻyicha yigʻiladi. Keyin indikatorlar stimulyator/destimulyator sifatida normallashtiriladi. Har bir blok boʻyicha oʻrtacha indeks hisoblanadi, soʻng umumiy E indeksi shakllantiriladi. Maqsadli T koʻrsatkichlar tumanning ixtisoslashuvi va strategik vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. Masalan, qayta ishlash ulushi uchun T = 0,70, suv samaradorligi uchun T = 0,75, innovatsiya qaytimi uchun T = 0,60, bandlik sifati uchun T = 0,65 boʻlishi mumkin. Natijada EM indeksi har bir tuman yoki zona boʻyicha muvozanat darajasini koʻrsatadi.

Muvozanatni amalda kuchaytirish uchun uch yoʻnalishdagi boshqaruv choralari zarur. Birinchisi – resurslarni qayta taqsimlash: suv tejovchi texnologiyalar, ozuqa bazasini yaxshilash, yerdan foydalanish intensivligini

2 Muallif tomondan ishlab chiqildi.

oshirish. Ikkinchisi – qiymat zanjirini uzaytirish: qayta ishlash, qadoqlash, sovuq zanjir, elektron savdo va eksport logistikasi. Uchinchisi – institutsional mexanizmlar: kooperatsiya, shartnomaviy dehqonchilik, qishloq xo'jaligi maslahat xizmatlari, agrosug'urta, kredit kafolatlari va ma'lumotlar almashinuvi. World Bankning O'zbekiston agrooziq-ovqat sektori bo'yicha tahlilida ham qishloq xo'jaligi ish o'rinlarining qiymati faqat soni bilan emas, balki kambag'allikni qisqartirish, oziq-ovqat xavfsizligi, qayta ishlash sanoati va hududiy iqtisodiyotga ta'siri bilan baholanishi qayd etilgan [12].

Taklif etilayotgan yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, u agrotadbirkorlik samaradorligini bir vaqtning o'zida uch darajada baholaydi: mikro daraja – xo'jalik yoki tadbirkorlik subyekti; mezo daraja – tuman, klaster yoki iqtisodiy zona; makro daraja – viloyat yoki mamlakat agrooziq-ovqat tizimi. Mikro darajada model tadbirkorlik qarorlarini – qaysi mahsulotni yetishtirish, qaysi texnologiyaga investitsiya kiritish, qaysi kanal orqali sotish – baholashga xizmat qiladi. Mezo darajada model hududiy ixtisoslashuv va resurs taqsimotiga asos bo'ladi. Makro darajada esa agrar siyosat, subsidiya va investitsiya dasturlarini natijaviylikka bog'lash imkonini beradi.

Ikkinchi afzallik – model "samaradorlik" va "barqarorlik" tushunchalarini ajratmaydi. OECD ta'kidlaganidek, standart TFP o'sishi doimo ekologik natijalar yaxshilanishini anglatmasligi mumkin, chunki odatdagi mahsuldorlik ko'rsatkichlari tabiiy kapital va ekologik tashqi ta'sirlarni to'liq hisobga olmaydi [7]. Shu sababli mazkur maqolada resurs va ekologik bloklar integral indeksning ajralmas qismi sifatida kiritildi. Masalan, yuqori hosildorlik suv sarfining keskin oshishi yoki tuproq sifatining pasayishi hisobiga ta'minlansa, EM indeksi bunday holatni muvozanatsiz deb baholaydi.

Uchinchi afzallik – model hududiy farqlarni hisobga oladi. Qashqadaryo viloyati kabi tabiiy-iqtisodiy sharoitlari bir xil bo'lmagan hududlarda yagona me'yoriy ko'rsatkich barcha tumanlar uchun adolatli bo'lmasligi mumkin. Masalan, tog'oldi tumanlarida bog'dorchilik, uzumchilik, asalarichilik va turizmga yaqin agrotadbirkorlik shakllari samarali bo'lsa, cho'l-yaylov hududlarida chorvachilik, ozuqa bazasi, qayta ishlash va logistika muhimroq bo'ladi. Shu sababli maqsadli T ko'rsatkichlar har bir zona uchun alohida belgilanishi kerak.

Biroq modelni amalda qo'llashda ayrim cheklovlar mavjud. Birinchi cheklov – ma'lumotlar sifati va davriyligi. Tumanlar kesimida innovatsiya investitsiyasi, suv sarfi, ozuqa birligi, qayta ishlash ulushi, shartnomaviy sotuv va ekologik ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar har doim ham to'liq emas. Ikkinchi cheklov – vaznlar subyektivligi. Ekspert baholashi yetarlicha asoslanmagan holda tashkil etilsa, indeks natijasiga institutsional ustuvorliklar va subyektiv baholar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun vaznlarni aniqlashda ekspert so'rovi, entropiya usuli va sezgirlik tahlilini birgalikda qo'llash tavsiya etiladi. Uchinchi cheklov – normallashtirish usuliga bog'liqlik. Minimum-maksimum normallashtirish taqqoslanayotgan guruh tarkibi o'zgarganda indeksni o'zgartirishi mumkin. Bu muammoni bartaraf etish uchun uzoq muddatli baza, maqsadli me'yorlar va persentillardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Iqlim xavflari muvozanat modelida alohida hisobga olinishi zarur. FAO va WMOning 2026-yilgi hisobotida ekstremal issiqlik dehqonlar, chorvachilik, baliqchilik va agrooziq-ovqat tizimlari uchun jiddiy xavf ekanini, qishloq xo'jaligi ishchilari va agrooziq-ovqat tizimlari bunday issiqlik ta'sirini birinchi bo'lib qabul qilishini ta'kidlaydi [13]. O'zbekiston va Qashqadaryo sharoitida suv tanqisligi, yuqori harorat, ozuqa bazasining mavsumiyligi va tuproq degradatsiyasi agrotadbirkorlik muvozanatiga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun ekologik blok faqat "qo'shimcha" ko'rsatkich emas, balki strategik xavf indikatori sifatida qaralishi kerak.

Taklif etilayotgan metodika DEA, SFA, Malmquist TFP va Cobb–Douglas kabi modellarni inkor etmaydi, balki ularni to'ldiruvchi amaliy vosita hisoblanadi. DEA samarali chegaraga nisbatan xo'jaliklarni taqqoslashga yordam beradi, SFA tasodifiy shovqin va texnik samarasizlikni ajratishi mumkin, Malmquist indeksi vaqt bo'yicha TFP o'zgarishini ko'rsatadi, Cobb–Douglas esa resurslar elastikligini baholaydi [15; 16]. Biroq mazkur modellar ko'p hollarda boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchi mutaxassislar uchun sodda integral ko'rsatkichni taqdim etmaydi. EM indeksi esa natijani 0–1 shkalada ko'rsatib, qaysi blokda muvozanat buzilganini tez aniqlash imkonini beradi.

Muvozanatni boshqarishda "maqsadli koridor" tamoyili muhim ahamiyatga ega. Agrotadbirkorlik tizimida har bir indikator uchun mutlaq maksimal qiymat emas, balki maqbul diapazon belgilanadi. Masalan, mahsulot hajmining juda tez o'sishi suv va yer resurslariga bosimni oshirsa, u holda bu o'sish barqaror samaradorlik deb baholanmaydi. Yoki bandlik ulushi yuqori bo'lsa-da, mehnat unumdorligi past bo'lsa, bu ijtimoiy samaradorlikning haqiqiy o'sishini anglatmaydi. Demak, muvozanat yondashuvi "ko'p ishlab chiqarish"dan "oqilona, qo'shilgan qiymatli va barqaror ishlab chiqarish"ga o'tishni ilmiy asoslaydi.

Amaliy jihatdan model hududiy dasturlarni natijaviylikka bog'lashda qo'llanishi mumkin. Masalan, subsidiyalar faqat mahsulot hajmiga emas, balki suv tejash, innovatsiya joriy etish, qayta ishlashga ulanish, shartnomaviy sotuv va bandlik sifatiga bog'lansa, agrotadbirkorlik muvozanati kuchayadi. Kredit va grantlar ham EM indeksi past, lekin resurs salohiyati yuqori bo'lgan tumanlarga ustuvor yo'naltirilishi mumkin. Bunda davlat, banklar, xususiy investorlar, kooperatsiyalar va qishloq xo'jaligi maslahat xizmatlari yagona monitoring tizimida ishlashi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, agrotadbirkorlik samaradorligi muvozanati – bu iqtisodiy foyda, resurs qaytimi, ijtimoiy ta’sir, innovatsion faollik, bozor-infratuzilma imkoniyatlari va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi kompleks mutanosiblikdir. Uni aniqlash uchun faqat mahsulot hajmi yoki rentabellikni baholash yetarli emas; ko‘p mezonli integral indeks va resurs cheklovlari orqali tahlil qilish zarur.

Maqolada taklif etilgan E, D va EM indekslari agrotadbirkorlik tizimining umumiy samaradorligi va muvozanat darajasini bir vaqtda baholash imkonini beradi. E indeksi natijaviylikni, D indeksi maqsadli me’yorlardan og‘ishni, EM indeksi esa muvozanatli samaradorlikni ifodalaydi. Bu yondashuv tumanlar, klasterlar va iqtisodiy zonalar kesimida solishtirma tahlil olib borishga qulay.

Resurs cheklovlari sharoitida muvozanatni ta’minlash marjinal samaradorliklarni tenglashtirish, resurslarni yuqori qaytimli va past ekologik bosimli yo‘nalishlarga qayta taqsimlash orqali amalga oshiriladi. Bu esa agrotadbirkorlikni ekstensiv o‘sishdan intensiv, innovatsion va qo‘shilgan qiymatga asoslangan rivojlanishga o‘tkazadi.

Qashqadaryo viloyati misolida metodikani to‘rtta hududiy zona kesimida qo‘llash maqsadga muvofiq: sug‘oriladigan intensiv dehqonchilik, mehnat resurslari ko‘p bo‘lgan diversifikatsiya, investitsiya va eksportga yo‘nalgan tadbirkorlik, qayta ishlash va qiymat zanjiriga asoslangan zona. Har bir zona uchun maqsadli indikatorlar va vaznlar alohida belgilansa, davlat qo‘llab-quvvatlovi, kredit, innovatsiya va infratuzilma loyihalarini aniq manzilli yo‘naltirish mumkin bo‘ladi.

Kelgusida tadqiqotni amaliy hisob-kitoblar bilan boyitish uchun 2020–2024-yillar bo‘yicha tumanlar kesimida ma’lumotlar bazasini shakllantirish, normallashtirilgan indikatorlar matritsasini tuzish, Excel Solver yoki ekonometrik dasturlar orqali optimallashtirish modelini hisoblash, shuningdek, DEA/SFA va Cobb–Douglas natijalari bilan taqqoslash tavsiya etiladi. Bu dissertatsiya tadqiqoti uchun agrotadbirkorlik samaradorligini baholashning nazariy-metodologik va amaliy asoslarini yanada mustahkamlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. Marshall, A. Principles of Economics: An Introductory Volume / A. Marshall. – 8th ed. – London : Macmillan and Co., 1920. – 871 p.
2. Pareto, V. Manuale di economia politica con una introduzione alla scienza sociale / V. Pareto. – Milano : Società Editrice Libraria, 1906. – 579 p.
3. Farrell, M. J. The Measurement of Productive Efficiency / M. J. Farrell // Journal of the Royal Statistical Society. Series A (General). – 1957. – Vol. 120, No. 3. – P. 253–281. – DOI: 10.2307/2343100.
4. Coase, R. H. The Nature of the Firm / R. H. Coase // Economica. – 1937. – Vol. 4, No. 16. – P. 386–405. – DOI: 10.1111/j.1468-0335.1937.tb00002.x.
5. FAO. World Food and Agriculture: Statistical Yearbook 2024 [Elektron resurs]. – Rome : Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2024. – URL: https://doi.org/10.4060/cd2971en (murojaat sanasi: 29.07.2026).
6. FAO. The State of Food and Agriculture 2025: Addressing Land Degradation across Landholding Scales [Elektron resurs]. – Rome : Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2025. – URL: https://doi.org/10.4060/cd7067en (murojaat sanasi: 29.07.2026).
7. Henderson, B. Integrated Approaches for Agricultural Sustainability and Productivity Assessments / B. Henderson, J. Lankoski // OECD Food, Agriculture and Fisheries Papers. – Paris : OECD Publishing, 2023. – No. 204. – 39 p. – DOI: 10.1787/60cfa586-en.
8. World Bank. Agriculture, Forestry, and Fishing, Value Added (% of GDP) – Uzbekistan: World Development Indicators. Indicator code: NV.AGR.TOTL.ZS [Elektron resurs]. – URL: https://data.worldbank.org/indicator/NV.AGR.TOTL.ZS?locations=UZ (murojaat sanasi: 29.07.2026).
9. World Bank. Agriculture, Forestry, and Fishing, Value Added per Worker; Employment in Agriculture – Uzbekistan: World Development Indicators. Indicator codes: NV.AGR.EMPL.KD; SL.AGR.EMPL.ZS [Elektron resurs]. – URL: https://data.worldbank.org/indicator/NV.AGR.EMPL.KD?locations=UZ; https://data.worldbank.org/indicator/SL.AGR.EMPL.ZS?locations=UZ (murojaat sanasi: 29.07.2026).
10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish: 2024-yil bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar [Elektron resurs]. – Toshkent, 2025. – URL: https://stat.uz/uz/press-relizlar/50245-2024-yil (murojaat sanasi: 29.07.2026).
11. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi: 2024-yil yanvar–dekabr [Elektron resurs]. – Toshkent, 2025. – URL: https://stat.uz/uz/press-relizlar/50245-2024-yil (murojaat sanasi: 29.07.2026).

12. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi: 2024-yil yanvar–dekabr [Elektron resurs]. – Toshkent, 2025. – URL: https://stat.uz/uz/press-relizlar/50245-2024-yil (murojaat sanasi: 29.07.2026).
13. https://stat.uz/uz/press-relizlar/50245-2024-yil (murojaat sanasi: 29.07.2026).
14. World Bank. Uzbekistan: Agri-Food Job Diagnostic [Elektron resurs]. – Washington, DC : World Bank, 2020. – URL: https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/249531601269906462/uzbekistan-agri-food-job-diagnostic (murojaat sanasi: 29.07.2026).
15. FAO; WMO. Extreme Heat and Agriculture: FAO–WMO Joint Report [Elektron resurs]. – Rome; Geneva : Food and Agriculture Organization of the United Nations; World Meteorological Organization, 2026. – URL: https://doi.org/10.4060/cd9394en (murojaat sanasi: 29.07.2026).
16. Porter, M. E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance / M. E. Porter. – New York : Free Press, 1985. – 557 p.
17. Coelli, T. J. An Introduction to Efficiency and Productivity Analysis / T. J. Coelli, D. S. P. Rao, C. J. O’Donnell, G. E. Battese. – 2nd ed. – New York : Springer, 2005. – 349 p. – DOI: 10.1007/b136381.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 7/2**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz